

DAVLAT VA HUQUQ NAZARIYASI FANINING AXAMIYATI HAMDA MAQSAD-VAZIFALARI

Mamatova Nilufar Abdullajonovna

Annotatsiya: Ushbu maqolada “Davlat va huquq nazariyasi fani” ning axamiyati, kelib chiqishi hamda maqsad va vazifalari to’g’risida so’z boradi. Shuningdek davlat va huquq nazariyasining umumbashariy xususiyatlari to’g’risida chuqur mulohazalar yuritilgan.

Kalit so’zlar: Davlat, huquq, jamiyat, O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, «inson huquqlari», «shaxs erkinligi», «demokratik fuqarolik jamiyati», «siyosiy hurfiylik» (plyuralizm), «hokimiyatlar taqsimlanishi», «qonun ustuvorligi», didaktik qonuniyat, Prezident, Sh.Mirziyoyev, shaxs, fundamental, metodologik.

Abstract: This article discusses the significance, origin, goals and objectives of the “Science of the Theory of State and Law”. Also, in-depth reflections on the universal features of the theory of state and law are given.

Keywords: State, law, society, Constitution of the Republic of Uzbekistan, “human rights”, “personal freedom”, “democratic civil society”, “political freedom” (pluralism), “separation of powers”, “rule of law”, didactic legality, President, Sh. Mirziyoyev, personality, fundamental, methodological.

Аннотация: В данной статье говорится о значении, происхождении, целях и задачах «Науки о государстве и теории права». Также были сделаны глубокие размышления об универсальных особенностях теории государства и права.

Ключевые слова: Государство, право, общество, Конституция Республики Узбекистан, «права человека», «свобода личности», «демократическое гражданское общество», «политический фанатизм» (плюрализм), «распределение властей», «верховенство закона», , дидактическая легитимность, президент, Ш.Мирзиёев, личность, фундаментальная, методическая.

Kirish

Moziydan ma’lumki, davlat va huquq kishilik jamiyati taraqqiyotining ma’lum bosqichida vujudga kelgan va uning hayotida hozirga qadar muhim ahamiyatga ega bo‘lib kelmoqda. Davlat ham, huquq ham – o‘ta murakkab, ayni vaqtda, serjilo, sirli va ko‘p qirrali ijtimoiy hodisalardir. Ular insonlar ongu shuuri va aqlini ohangrabodek o‘ziga tortib keladi. Shu bois, insoniyat azal-azaldan ushbu sirli voqeliklarning ma’nomazmunini anglashga intilib, ularga tinimsiz jiddiy qiziqish bildirib keladi. Tafakkur va aql daholarining sa’yuharakatlari tufayli qadim zamonlardan buyon davlat va huquq haqida teran nazariy ta’limot yaratildi. Ushbu ta’limot bugungi kunda «Davlat va huquq nazariyasi» deb nomlanadi. Bunday ta’limot dunyoning deyarli barcha mamlakatlarida mavjud bo‘lib, fan sifatida o‘rganiladi. Davlat va huquq nazariyasi umumbashariy

xususiyatga ega, uning universal qoidalari, xulosa va ta'riflari mintaqaviy joylashuvi, milliy mansubligidan qat'iy nazar, har qanday davlatga va huquqiy tizimga umumiy qonuniyatlar nuqtayi nazaridan birdek taalluqlidir. O'zbekistonda mustaqillik tufayli qaror topayotgan davlatchilik hamda huquqiy tizim davlat va huquq nazariyasining umumiy qonuniyatlari, nazariy andozalari, tamoyil va mezonlariga bo'ysunadi. Boshqacha aytganda, yangi demokratik huquqiy davlatchilik, fuqarolik jamiyati va adolatli huquqiy tizim davlat va huquq nazariyasining ilmiy nuqtayi nazardan asoslantirilgan xulosa, tavsiya va bashoratlari asosida barpo etilishi mumkin va lozim. Ayni vaqtda ta'kidlash joizki, mamlakatimizda shakllanayotgan davlat, huquqiy va qonunchilik tizimlarining mohiyati, ijtimoiy vazifasi fanimiz doirasida keng mushohadaga, nazariy tahlilga muhtojdir. Zero, ularga hali «davlat va huquq nazariyasi» tomonidan munosib ilmiy-nazariy baho berilgani yo'q. Qolaversa, davlat va jamiyat qurilishida ro'y berayotgan islohotlar hamda modernizatsiyalash sharoitida davlat va huquqning namoyon bo'lishi, o'zgarishi, takomillashuvi o'z xususiyatlariga ega bo'lishi tabiiy. Shu bois, O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, yangi qonunlari, xalqimizning tarixiy huquqiy merosi, huquqiy qadriyatlari va an'analari, shuningdek, jamiyatimiz maqsadi sifatida ilgari surilgan huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati barpo etish, demokratiya va inson huquqlari tamoyillarini hayotga joriy qilishga yo'naltirilgan g'oyalar asosida davlat va huquq nazariyasiga oid zamonaviy darsliklar yozish o'zbek huquqshunosligi oldida turgan dolzarb vazifadir. Bugungi o'zbek jamiyati o'zi uchun «huquqiy davlat», «inson huquqlari» va «shaxs erkinligi», «demokratik fuqarolik jamiyati», «siyosiy hurfiylik» (plyuralizm), «hokimiyatlar taqsimlanishi», «qonun ustuvorligi», «mustaqil sud hokimiyati» kabi fundamental tushunchalarni qayta kashf etmoqda. Ayonki, jamiyat ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy hayotini zamonaviy ma'rifiy tamoyillar asosida isloh etishda davlat va huquq benihoya katta rol o'ynaydi. Shu bois, davlat tuzilishi, demokratik siyosiy tizimning mavjud bo'lishi, huquqiy munosabatlar oqilona tizimining tashkil etilishi ko'p jihatdan mamlakatimizdagi davlat-huquqiy institutlarning faoliyatiga bog'liqdir.

Huquq o'qitish metodikasi bo'lajak o'qituvchilarga dars berish yo'llarini o'rgatadi. Fanni o'qitish sifatini belgilashda metodika fani katta o'rin egallaydi. Metodika bilan qurollangan har bir o'qituvchi to'g'ri, ijodiy va samarali ishlash imkoniyatiga ega bo'ladi. Huquq fani o'qituvchisi zimmasiga yosh avlodni har tomonlama yetuk va barkamol kishi qilib tarbiyalash singari katta va ma'suliyatli vazifalarni yuklaydi. Huquqni o'qitish va tarbiyalash metodikasi o'qituvchilarga nimani o'qitish va qanday o'rgatish degan savolga javob berib: birinchidan, o'qituvchilarga fan asoslarini singdiradi; ikkinchidan, ularni o'rgatish metodlarini aniqlab beradi. Fan asoslari, huquq bo'yicha bilimning hajmi esa huquqshunoslik fani dasturida belgilab qo'yilgan. Huquq fani o'qitish metodikasining o'ziga xos bir qancha xususiyatlari mavjud: dars obyektlari har xil bo'lib, mashg'ulotlarning mazmuni bir biridan tubdan farq qiladi; darsning mazmuni, mohiyati, yo'nalishlarini belgilashda o'qituvchining sifatlari, bilim darajasi,

mahorati va hokozolar muhim o`rin egallaydi; o`quvchilarning bilim natijasi har xilligi inobatga olinadi; darslarda berilgan bilimlar hayotiy hamda amaldagi tartib qoidalar va me`yoriy normalar bilan bevosita bog`liq bo`ladi; huquq fani asoslari doimiy ravishda yangilanayotganligi hisobga olinadi va h.k. O`qitishning dialektik qonuniyatiga amal qiluvchi huquq o`qituvchisi, metodika fanini ham turlicha uslub va tamoyillarga ega ekanligini bilib olishi shart: Birinchidan, har bir mavzuni turlicha usullar bilan o`tish qonuniydir. Ikkinchidan, har bir mashg`ulot turli tuman huquq manbalari asosida tashkil etiladi. Uchinchidan, huquq mashg`ulotida asosan me`yoriy normalar o`rgatiladi. To`rtinchidan, darslarda hukumat tomonidan olib borilayotgan siyosatning huquqiy asoslari o`rgatib boriladi. Beshinchidan, yoshlarga intizom va tartib qoidalar muntazam ravishda o`rgatib boriladi. Bular pedagogik qonuniyatlar bo`lib, ularni huquq o`qitish metodikasi fanida ham qo`llanilishi maqsadga muvofiqdir

O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2019 yil 9 yanvarda "Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirishning chora tadbirlari" to`g`risidagi qaroriga ko`ra, bugungi kunda ta`lim tizimida huquq fanini tegishli darajada tashkil qilinishi, ilmiy adabiyotlardan foydalangan holda, mashg`ulotlar zamonaviy ta`lim texnologiyalariga tayangan holda, o`t kazilishi lozimligi, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bilan ta`minlanishi zarurligidan kelib chiqib, huquq fanlarini maqsadli, samarali va kafolatlangan natijali oqitish davr talabidir.

Davlat va huquq nazariyasi yuridik fanlar tizimida umumiy, fundamental va metodologik fan sifatida maydonga chiqadi.

Davlat va huquq nazariyasi maxsus va amaliy yuridik fanlarning aniq materiallariga tayanadi, ularni nazariy jihatdan umumlashtiradi.

Umumiy va fundamental fan sifatida huquqshunoslikning asosiy tushuncha va qoidalarini ishlab chiqadi.

Davlat va huquq nazariyasi yuridik fanlar tizimida umumiy, fundamental va metodologik fan sifatida maydonga chiqadi.

Davlat va huquq nazariyasi maxsus va amaliy yuridik fanlarning aniq materiallariga tayanadi, ularni nazariy jihatdan umumlashtiradi.

Umumiy va fundamental fan sifatida huquqshunoslikning asosiy tushuncha va qoidalarini ishlab chiqadi.

Davlat va huquq nazariyasining o`ziga xos xususiyatlari

Bugun ro`y berayotgan o`zgarishlar bizni ko`pchilik tushunchalar, atamalarni qaytadan idrok etish va hatto qadriyatlarini qayta baholash bilan shug`ullanishga undaydi. Boshqacha bo`lishi ham mumkin emas. Zero, davlat va huquq nazariyasi sobiq Ittifoq sharoitida ma`muriy-buyruqbozlik tizimining g`oyaviy asosi va oqlovchisi vazifasini bajarganligi sababli u albatta, qayta idrok etilishga muhtoj. Bundan tashqari, bugungi jamiyatimiz taraqqiyotiga xos yangiliklar, davlat va hukuk tushunchasi, ularning mohiyati, tasnifi, vazifalarini yangacha talqinda tubdan qayta ko`rib chiqishni zamon taqozo etmokda. Bu - tabiiy hol. Davlat va huquq nazariyasi faniga bolsheviklarcha

yondashuv, kommunistik mafkura talablari asosida munosabatda bo'lish shunisi bilan farq qilardiki, bilimning bu sohasida insoniyat to'plagan boyliklarning ko'p qismi hamda respublikamizda, xorijiy mamlakatlarda saklanib, yig'ilib kelgan

davlat-huquq tafakkuri durdonalari marksizm-leninizm qoidalariga mos kelmagan taqdirda, e'tibordan batamom chetda qolib ketardi.

Xulosa: Xulosa o'rnida shuni aytishimiz joizki Davlat va huquq nazariyasi milliy istiqlol mafkurasi mohiyatidan kelib chiqqan holda aholining huquqiy ongi va yuksak huquqiy madaniyatini shakllantirishga, ular faoliyatida qonun ustuvorligi, qonunga hurmat va unga itoatgo'ylik ko'nikmalarini hosil qilishga xizmat qiladi. Darslikni yozish jarayonida, ya'ni fanning turli mavzularini yoritishda huquqshunoslik va davlatshunoslikda an'anaviy bo'lib qolgan mumtoz qarashlar, qoidalar bilan mustaqillik yillarida paydo bo'lgan yangi zamonaviy g'oyalar (qarashlar) o'rtasidagi afzallikni aniqlashga doir muhim bir masala ko'ndalang edi. Bu boradagi yechim – an'anaviy va zamonaviy ta'limotlar o'rtasida oqilona muvozanatni topishdan iborat bo'ldi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mirziyoyev Sh.M. —Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligi garovi mavzusidagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasi. – T.: —O'zbekiston, 2017.

2. Kenenova I. Xorijiy davlatlar konstitutsiyaviy huquqini o'qitish metodikasi va metodikasi / I. Kenenova // Qiyosiy konstitutsiyaviy sharh.-2009. - N 6.-S. 66-71.

3. Axundova S.L. Fanlararo aloqalar "Dunyoni bilish" fanining integrativ imkoniyatlarini amalga oshirish vositasi sifatida / Axundova S. L. // Zamonaviy fanning dolzarb muammolari.-2009. - N 2.-S. 52-56.

4. Urumov A.V. "Davlat va huquq nazariyasi" fanini o'qitishning didaktik tamoyillari / Urumov A. V. // Yuridik ta'lim va fan.-2010. - N 3.-S. 25-29.

5. Олий таълим. Меъёрий ҳужжатлар тўплами. –Т.: Шарқ, 2001. – Б.4.